



## INTERNETNI XALQARO MIQIYOSIDA TARTIBGA SOLISH MASALALARI.

**Dadaxon Raimboyev**

qoraqalpoq filologiya va jurnalistika

fakulteti 4-bosqich talabasi

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969092>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 02<sup>nd</sup> July 2022

### KEY WORDS

*yuridik, resurs, subyekt,  
pochta*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola internet va undagi ma'lumotlarni xalqaro tartibga solinishi normalari haqida yozilgan.*

Internet yuridik shaxs maqomiga ega emas. Shu sababli u biron bir xalqaro tashkilotga yoki muayyan davlatga bo'ysunmaydi. Internet resurslarni taqsimlash bo'yicha yagona markaz shu jumladan nazorat markazi yo'q. Shuning uchun ham internetni ishlatishda foydalaniladigan materiallar va axborot resurslari xususiy mulkka egalik huquqiga ega. Ayni paytda internetda uchta asosiy subyektlar guruhlar mavjud. Dasturiy ta'minotni yaratuvchisi va tarmoqning axborot info grafikasining texnik qismi uning ishlashi kengaytirilishi va rivojlanishi tarmoqdagi axborotni ishlab chiqaruvchilari va dasturchilar shuningdek tarmoqqa ulanish uchun xizmatlarni kuzatish ko'rsatadiganlar. Axborot va tarmoq xizmatlari iste'molchilari bo'lib ular o'z navbatida axborot iste'molchilariga hosting xizmatlari iste'molchilarga va axborot pochta xizmatlarining iste'molchilari ga bo'linadi. Shunday qilib global internet turli maqsadlar ehtiyojlar

va imkoniyatlariga ega turli subyektlar o'rtasida rivojlangan munosabatlar tizimidir. Buning natijasida ularning faoliyatini tartibga solinishi va ularning huquq hamda majburiyatlarini me'yoriy mustahkamlash talab etiladi. Internetni boshqarish jarayonida ko'plab subyektlar jumladan fuqarolik jamiyati biznesni davlat ishtirok etadi. 1980-yillardan boshlab Yevropa va AQSHda internetni huquqiy ravishda boshqarishni tartibga solish bo'yicha faoliyat boshlandi. Bugungi kunga kelib internetni huquqiy boshqarish bo'yicha bir nechta bosqichlari mavjud. Xalqaro bosqich, mintaqaviy bosqichi, milliy bosqich. Yevropa ittifoqining me'yorlari uni unifikatsiyasi Yevropa ittifoqi bir butun jahon intellektual mulk tashkiloti xalqaro savdo palatasi BMTning yevropa iqtisodiy komissiyasi mehnatni boshqarish bo'yicha xalqaro konferensiyalar o'tkaziladi. Global tarmoqni boshqarish huquqiy axborot jamiyati bo'yicha jahon sammitining



Jeneva bosqichida qabul qilingan tamoyillar deklaratsiyasida mustahkamlangan bo'lib unda internet bilan bog'liq davlat siyosati davlatlarning suveren huquqlari deb belgilangan. Qolgan boshqa sohada so'ngi 10 yil davomida quyidagi huquqiy normalar ishlab chiqildi. YUNISTRA elektron tijorat to'g'risidagi qonun. Elektron imzo to'g'risidagi qonun. Yevropa ittifoqi tomonidan esa shaxsiy ma'lumotlarni avtomatik tarzda qayta ishlashdan jismoniy shaxslarni himoyalash to'g'risidagi konvensiya shaxsiy ma'lumotlarni avtomatik tarzda qayta ishlashdan jismoniy shaxslarni himoyalash to'g'risidagi konvensiya qo'shimcha protokol axborot jamiyatini xizmatlariga doir axboriy va huquqiy hamkorlik to'g'risidagi konvensiya Yevropa ittifoqining kiberjinoiyatlar bo'yicha konvensiyasi internetni tartibga solishni birlashtirishning asosiy tamoyillari. Internetdagi erkin muloqot to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatib ketiladi. Bular quyidagilarni qamrab oladi. Internetdagi axborot mazmuniga cheklovlar qo'yilmaydi internetdagi axborot mazmunini o'z-o'zini boshqarish uni rag'batlantiradi himoyalanmagan bu guruhlarini muayyan internet saytlarga kirishdan himoya qiluvchi filtrlardan foydalanishdan tashqari axborotni bilishga xalaqit beradigan qulfi filtrlardan foydalanishni taqiqlaydi.

Nizolarda adolatli sudlovlarning asoslari va kafolatlarini yaratadi. 1997-yil xalqaro savdo palatasi doirasida raqamli sertifikatlangan xalqaro savdo uchun umumiy qoidalar va 1998-yilda internetda reklama va marketingning umumiy tamoyillari ishlab chiqildi. Birlashgan millatlar tashkilotining yevropa uchun iqtisodiy komissiyasi va BMTning savdolarini osonlashtirish va elektron biznes bo'yicha markazi 1995 yilda elektron ma'lumot almashinuvining xalqaro tijoriy maqsadlarda foydalanish bo'yicha bitimini 2000-yilda esa elektron savdo shartnomasi qabul qilindi. Yevropa ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarda internetni huquqiy tartibga solish borasida quyidagi hujjatlar imzolandi. Shundan kelib chiqib shunday qilib xalqaro internet huquqini rivojlantirishda xalqaro-huquqiy bitimlar bilan qamrab olinmagan davlatlarni o'rnatish hamda xalqaro huquqiy shartnoma normalari asosida ularni tartibga solish uchun asos yaratish muhim ahamiyatga ega. Internetni boshqarish sohasidagi shartnoma normalar ortasidagi mavjud ziddiyatlar huquqni hukumatlar fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning teng ishtiroki bilan tuzilgan. Xalqaro huquqiy bitimlar orqali hal qilinishi kerak bunday sharoitlarda tegishli xalqaro-huquqiy shartnoma me'yorlarining qonuniyligi kafolatlanadi va ularni amalga oshirish samarali bo'ladi.